



_____ hokimligi
*maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi*

_____ maktabgacha va
*maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi
___-umumiy o'rta ta'lim maktabi
tarix fani o'qituvchisi*

_____ning
*20__-20__-o'quv yilida
9-sinflar uchun jahon tarixi fanidan
II yarim yillik uchun*

DARS

ISHLANMALARI

20__-20__-o‘quv yili 9-sinf jahon tarixi fanidan uchun II yarim yillik
taqvim mavzu rejasi

№	O‘tiladigan mavzular rejasi	Nazariy soat	Dars o‘tkazish muddati	Dars o‘tkazilgan sana
1.	Xitoy: yuksalish va inqiroz orasida (Loyiha ishi mavzusi va baholash mezonini e‘lon qilish)	1		
2.	Hindiston Boburiylar imperiyasi davrida	1		
3.	Yaponiya va Koreyada ijtimoiy-siyosiy jarayonlar	1		
4.	Usmoniylar imperiyasi: yuksalish, inqiroz va islohot	1		
5.	Eron rivojlanish va qaramlik arafasida	1		
6.	Afrika: mustamlakachilikning boshlanishi	1		
7.	Buyuk Britaniyaning yuksalishi	1		
8.	Fransiya inqilob va imperiyalar davrida	1		
9.	Germaniya va Italiyada mamlakat birlashuvi uchun kurash. 1-BSB (50 ball) Loyiha ishi taqdimoti	1		
10.	Rossiya: taraqqiyotning o‘zgacha yo‘li	1		
11.	AQSH: fuqarolar urushi va keyingi taraqqiyot	1		
12.	Yaponiya va Koreya: ma‘rifatli boshqaruv va mustaqil taraqqiyot uchun kurash	1		
13.	Xitoy qo‘zg‘olon va urushlar davrida	1		
14.	Hindistonning Buyuk Britaniya mustamlakasiga aylanishi	1		
15.	Usmoniylar imperiyasi inqiroz va islohotlar	1		
16.	G‘arb mamlakatlarining Eron va Afg‘onistonni egallash uchun urinishlari	1		
17.	1-CHSB (40 ball)	1		
18.	Afrika: qul savdosi va mustamlakachilikning kuchayishi	1		

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Xitoy: yuksalish va inqiroz orasida (Loyiha ishi mavzusi va baholash mezonini e'lon qilish)

Darsning maqsadi:

Ta'limiy: darsda yangi tarix voqealari bilan tanishtirish, yangi tarix kishilarning tabiiy tengligi, shaxsning erkinligi va sha'ni kabi demokratik tushunchalarga asoslangan yangicha dunyoqarashlari haqida tushuncha berish mavzuga oid bilim va tushunchalar hosil qilsih, qiziqishini ortirish, jamiyat taraqqiyotining tarixiy tajribalaridan bugungi kunda foydalanib, yo'l qo'yilgan xatolarni takrorlamalik mamlakatimizda buyuk jamiyat qurishni va jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallashimiz, rivojlangan mamlakatlar tarixini chuqur o'rganib, uning ijobiy tomonlaridan respublikamiz ravnaqi uchun hissa qo'shish kerakligi haqida tushuncha berish.

Tarbiyaviy: o'quvchilarni mustaqil ishlashga o'rgatish, bilimlarini boyitish va yangi bilim berish, sivilizatsiya

insoniyat tarixida neolit davridan boshlanib, XVIII asrning 60-yillaridagi sanoat inqilobi va uning asosida yangi jamiyat shakllanguncha davom etdi.demokratik tushunchalar berish.

Rivojlantiruvchi: Jahon tarixining eng qiziqarli, shu bilan birga, murakkab davrini o'rgatish, bu davrda dunyoda katta o'zgarishlar yuz bergani, ishlab chiqarishda monopolistik kapitalizm qaror topgani, turli xil sindikatlar, kartellar, konsemlar yuzaga kelgani haqida tushuncha berish.

O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:

Kommunikativ kompetensiya:

o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda aniq va tushunarli bayon qila olish, mavzudan kelib chiqib savollarni mantiqan to'g'ri qo'ya olish va javob berish; ijtimoiy moslashuvchanlik, o'zaro muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish, jamoaviy hamkorlikda ishlay olish;

muloqotda suhbatdosh fikrini hurmat qilgan holda o'z pozitsiyasini himoya qila bilish, uni ishontira bilish;

turli ziddiyatli vaziyatlarda o'z ehtiroslarini boshqarish, muammo va kelishmovchiliklarni hal etishda zarur (konstruktiv) bo'lgan qarorlarni qabul qila olish.

O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi:

shaxs sifatida doimiy ravishda o'z-o'zini rivojlantirish, jismoniy, ma'naviy, ruhiy va intellektual kamolotga intilish;

o'z xatti-harakatini adekvat baholash, o'zini nazorat qila bilish, halollik, to'g'rilik kabi sifatlarga ega bo'lish.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:

Jamiyatda bo'layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va faol ishtirok etish; o'zining fuqarolik burch va huquqlarini bilishi, unga rioya qilish.

Darsning metodi: og'zaki (suhbat, savol-javob)

Darsning vositalari: dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

Shakl: jamoa, guruhda ishlash, hamma o'zi uchun.

Nazorat: o'quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: o'quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e'lon qilinadi.

Darsning borishi:

№	Bo'limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

Siyosiy hayot. XVI asr oxiri — XVII asr boshlarida Xitoyda minlar sulolasi (1368–1644) siyosatidan norozilik kuchaydi. Mamlakatda islohotlar tarafdori bo'lgan kuchlar shakllandi. Ularning g'oyalarida davlat apparatini isloh qilish, mamlakatni boshqarishda bevosita imperatorning rolini oshirish, shuningdek, iqtisodiy o'zgarishlar samaradorligini va ishlab chiqarayotgan mahsulotlarining sifatini oshirish uchun davlat manufakturalari va ustaxonalarini xususiylashtirish, dehqonlarning yerlarini tortib olishni to'xtatish, soliqqa tortish tizimini tartibga solish kabilar muhim o'rin tutardi.

XVII asr boshlarida islohotchilar Pekinda hokimiyatni egallashga erishdi va amalda o'z dasturidagi talablarni hayotga tatbiq etishga urindilar. Ammo saroy asilzodalarining qarshiligi tufayli islohotchilar hokimiyatdan chetlatilib, ko'pchiligi qatag'on qilindi. Davlat xazinasini o'marish, dehqonlar yerlarini tortib olish, soliqlar va shaxsiy majburiyatlarni oshirish davom etaverdi. Xitoyning xalqaro ahvoli ham tobora yomonlashib bordi. Biroq minlar hokimiyati uchun, hukmron tuzumga qarshi tobora yirik miqyosdagi urushga aylanib borayotgan dehqonlar qo'zg'olonlari, ayniqsa, xavfli edi. Chin sulolasi hukmronligi. XVI asr oxirida Amur daryosidan janubda Manchjur qabilalarining ittifoqi paydo bo'ldi. Manchjurlar o'z davlatini tuzib, qo'shni Mo'g'ulistonni bo'ysundirdi. 1636-yili manchjurlar sardori Abaxay o'zini xon, yangi davlatni esa "Chin" ("Sin") (ya'ni "sof", "toza") deb atadi. Chinlar Xitoyni egallash uchun uzoq kurash olib bordi. Shu davrda, 1639–1644-yillari Xitoyda dehqonlar qo'zg'olonining avj olishi va bir guruh qo'zg'olonchilarning Pekinni egallashi ham chinlarga yordam berdi. 1644-yili Pekinga kirib kelgan chinlar hukmdori Shunchji Xitoy imperatori deb e'lon qilindi. Chinlar Xitoydagi dehqonlar qo'zg'olonini bostirdi. Mahalliy vatanparvarlarning Nankin shahrida chinlarga qarshi

yagona front tuzish uchun urinishi ham muvaffaqiyat qozonmadi. Keyingi bir necha yil davomida chinlarga qarshi bo'lib o'tgan qo'zg'olonlar ham qo'shinlar tomonidan shafqatsizlarcha bostirildi.

Chinlarning butun Xitoy hududini egallashi oson kechmadi. Har bir shahar qattiq janglar bilan olindi. Uzoq davom etgan urushlardan so'ng Tayvan ham egallab olindi va Xitoy hududi to'liq bo'ysundirildi. Manchjurlarning chin sulolasi Xitoyda 1911-yilgacha hukmronlik qildi. Chinlar XVII–XVIII asrlarda o'zlarining bosqinchilik siyosatini davom ettirdi. Koreya, G'arbiy va Shimoliy Mo'g'uliston, Vyetnam, Koshg'ar bo'ysundirildi, Birma ham chinlarga vassallikni tan oldi.

Ingliz elchilari xitoyliklarga sovg'a-salom topshirishmoqda.

J. Gilrey karikaturasi



IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:

1. Nima uchun manchjurlar Xitoy va boshqa hududlarni bosib olishga muvaffaq bo'lishdi?
2. Xitoyda agrar soha yuqori darajada rivojlanganligi haqida so'zlab bering.
3. XVI–XVIII asrlarda Xitoy madaniyati rivojlanishining o'ziga xos tomonlari nimalardan iborat edi?

V. O'quvchilarni rag'batlantirish. darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o'quvchilar rag'bat kartochkalari bilan rag'batlantiriladi.

VI. Uyga vazifani e'lon qilish: yangi mavzuni to'liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.

O'IBDO': _____

(imzo)

(sana)

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Hindiston boburiylar imperiyasi davrida

Darsning maqsadi:

Ta'limiy: darsda yangi tarix voqealari bilan tanishtirish, yangi tarix kishilarning tabiiy tengligi, shaxsning erkinligi va sha'ni kabi demokratik tushunchalarga asoslangan yangicha dunyoqarashlari haqida tushuncha berish mavzuga oid bilim va tushunchalar hosil qilsih, qiziqishini ortirish, jamiyat taraqqiyotining tarixiy tajribalaridan bugungi kunda foydalanib, yo'l qo'yilgan xatolarni takrorlamaslik mamlakatimizda buyuk jamiyat qurishni va jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallashimiz, rivojlangan mamlakatlar tarixini chuqur o'rganib, uning ijobiy tomonlaridan respublikamiz ravnaqi uchun hissa qo'shish kerakligi haqida tushuncha berish.

Tarbiyaviy: o'quvchilarni mustaqil ishlashga o'rgatish, bilimlarini boyitish va yangi bilim berish, sivilizatsiya

insoniyat tarixida neolit davridan boshlanib, XVIII asrning 60-yillaridagi sanoat inqilobi va uning asosida yangi jamiyat shakllanguncha davom etdi.demokratik tushunchalar berish.

Rivojlantiruvchi: Jahon tarixining eng qiziqarli, shu bilan birga, murakkab davrini o'rgatish, bu davrda dunyoda katta o'zgarishlar yuz bergani, ishlab chiqarishda monopolistik kapitalizm qaror topgani, turli xil sindikatlar, kartellar, konsemlar yuzaga kelgani haqida tushuncha berish.

O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:

Kommunikativ kompetensiya:

o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda aniq va tushunarli bayon qila olish, mavzudan kelib chiqib savollarni mantiqan to'g'ri qo'ya olish va javob berish; ijtimoiy moslashuvchanlik, o'zaro muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish, jamoaviy hamkorlikda ishlay olish;

muloqotda suhbatdosh fikrini hurmat qilgan holda o'z pozitsiyasini himoya qila bilish, uni ishontira bilish;

turli ziddiyatli vaziyatlarda o'z ehtirolarini boshqarish, muammo va kelishmovchiliklarni hal etishda zarur (konstruktiv) bo'lgan qarorlarni qabul qila olish.

O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi:

shaxs sifatida doimiy ravishda o'z-o'zini rivojlantirish, jismoniy, ma'naviy, ruhiy va intellektual kamolotga intilish;

o'z xatti-harakatini adekvat baholash, o'zini nazorat qila bilish, halollik, to'g'rilik kabi sifatlarga ega bo'lish.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:

Jamiyatda bo'layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va faol ishtirok etish; o'zining fuqarolik burch va huquqlarini bilishi, unga rioya qilish.

Darsning metodi: og'zaki (suhbat, savol-javob)

Darsning vositalari: dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

Shakl: jamoa, guruhda ishlash, hamma o'zi uchun.

Nazorat: o'quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: o'quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e'lon qilinadi.

Darsning borishi:

№	Bo'limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

Hindistonda siyosiy parokandalik. XVI asr boshlarida Hindiston siyosiy parokandalik, feodal urushlar holatida edi. Faqat vayronalik keltiruvchi bu urushlarning tugatilishidan aholining deyarli barcha qatlami manfaatdor edi. Shunday sharoitda XVI asr 20-yillaridan Dehlida hokimiyatni egallab turgan sulton Ibrohimning harakatlari ajralib chiqqan vasallarni o'z hukmi ostida birlashtirish uchun yetarli bo'lmadi. Natijada sulton Ibrohimning siyosatidan norozi bo'lgan saroy a'yonlari orasida o'sha paytda Kobulda hukmdor bo'lib turgan Zahiriddin Muhammad Boburni taxtga taklif qilish g'oyasi paydo bo'ldi. Mahoratli sarkarda, tajribali davlat arbobi va ajoyib shoir Mirzo Bobur bu qulay sharoitdan ustalik bilan foydalandi. Boburiylar imperiyasining tashkil topishi. 1526-yili Mirzo Boburning janglarda toblangan 20 ming qo'shini Afg'onistonning tog'li yo'llari orqali Hindistonga yurish qildi. Hind rojalari birlasha olmadilar va Mirzo Bobur qo'shiniga qarshilik qilishga ojizlik qildilar. Mirzo Bobur qisqa vaqt ichida Shimoliy Hindistonning katta qismini o'ziga bo'ysundirdi. 1526-yil 21-aprelda Panipat jangida sulton Ibrohim qo'shinlarini tor-mor qildi va Dehlini egalladi. Mirzo Boburni taxtga taklif qilgan saroy a'yonlari undan faqat sulton Ibrohimga qarshi foydalanmoqchi edilar, xolos. Mirzo Bobur Dehli taxtida uzoq o'tirmaydi, olgan o'ljalari ko'rsatgan yordami uchun yetarli, taxtni o'zimizga qoldirib, qaytib ketadi, deb hisoblashgandi. Ammo keyinchalik Mirzo Boburning Dehli taxtida uzoq qolishini tushungan hind zodagonlari unga qarshi birlashdilar. 1527-yil 13-martda bo'lgan jangda Mirzo Bobur ular ustidan ham g'alaba qozondi.

Mirzo Bobur yana bir qator hind yerlarini bosib oldi va o'zini bu yerlarning hukmdori deb e'lon qildi. U asos solgan davlatni G'arb tarixchilari "Buyuk Mo'g'ullar imperiyasi" (yangi sulolaning asoschisi bo'lgan Boburning kelib chiqishini Chingizxonga bog'lab, sulolani Yevropada "Buyuk Mongollar imperiyasi" deyishgan) deb atashadi. U G'arbda Kobuldan Sharqda Bengaliya chegaralarigacha bo'lgan hududni qamrab oldi. Mirzo Bobur qobiliyatli va uzoqni ko'ruvchi siyosatchi, lashkarboshi va davlat arbobi, shoir va tarixchi olim edi. U hammadan ko'proq hind xalqi zarar ko'rayotgan feodal urushlarni tugatdi, savdo-sotiq, qurilish, fan va adabiyotga homiylik qildi. Bu buyuk vatandoshimiz Turkiston, Hindiston va Afg'oniston xalqlari tarixiga, ularning san'ati, urf-odatlariga va diniga katta qiziqish va hurmatini namoyon qildi. Shu xislatlar tufayli u o'zi zabt etgan hududda qudratli davlat barpo etdi va madaniyat taraqqiyotiga katta hissa qo'shdi.

Akbarshohning islohotlari

Hududiy- ma'muriy	Diniy	Harbiy	Soliq	Madaniyat, san'at, yozuv	O'lchov birliklari va taqvim
----------------------	-------	--------	-------	--------------------------------	------------------------------------

Boburiylar davlati imperiyaga aylandi

Shahar, hunarmandchilik va savdo. Hindistonning Boburiylar hukmronligi ostida birlashishi shaharlarning, savdo va hunarmandchilikning ham rivojlanishiga olib keldi. Shaharlar iqtisodiy, ma'muriy-siyosiy va madaniy markazlar rolini o'ynay boshladi. XVII asrda hind shaharlarida aholining 15–20 foizi yashardi. Ayrim shaharlar, masalan, Dehli, Laxor, Agra, Ahmadobod kabilar aholisi juda ko'p sonli bo'lib, yarim milliondan oshardi. Shaharlarda hunarmandchilikning ko'plab turlari, ayniqsa, to'qimachilik keng rivojlangandi.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:

1. Hindistonda Boburiylar imperiyasi qay tariqa o'rnatildi?
2. Akbarshoh va Avrangzebning yuritgan siyosatini taqqoslang, ularning o'xshash va farqli tomonlarini toping.

V. O'quvchilarni rag'batlantirish. darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o'quvchilar rag'bat kartochkalari bilan rag'batlantiriladi.

VI. Uyga vazifani e'lon qilish: yangi mavzuni to'liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.

O'IBDO': _____
(imzo) (sana)

veb-saytimiz: Zokirjon.com

Zokirjon.com. veb-sayiti orqali o'zingiz uchun kerakli hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.

Zokirjon Admin bilan

90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog'lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so'raladi.

Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi

38 listdan iborat 9-sinf jahon tarixi fanidan II yarim yillik konspektini to'loq holda olish uchun telegramdan yozing.




Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

To'lov uchun: **UZCARD *880*9860230104973329*summa#**

Plastik egasi Nabiye Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To'liq holda olganingizdan so'ng:
Faqat o'zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.
Internet orqali veb-saytlarga joylamang.
Kanal va gruppalariga tarqatmang.

**OMONATGA
HIYONAT QILMANG.**

Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo'ling!

Bizda maktablar uchun quydagi hujjatlar mavjud.

- 1. 1-11-Sinflar uchun kelajak soati ish reja va konspektlari**
- 2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to'g'arak hujjatlari**
- 3. Sinf rahbar hujjatlari**
- 4. Metodbirlashma hujjatlari**
- 5. Ustama hujjatlari**
- 6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar va tezislar**
- 7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqvim mavzu rejalar)**
- 8. Maktab ish hujjatlari**
- 9. Direktor ish hujjatlari**
- 10. MMIBDO' ish hujjatlari**
- 11.O'IBDO' ish hujjatlari**
- 12.Psixolog hujjatlari**
- 13.Xotin-qizlar qo'mitasi ish hujjatlari**
- 14.Kutubxona mudirasi ish hujjatlari**
- 15.Besh tashabbus hujjatlari**
- 16. Ommalashtirish uchun dars ishlanmalar va ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar**